

PEYAMI SAFO ASARLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI*Sarvara Tashaliyeva**TDShU va O'zJOKU**katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola mavzusi turk yozuvchisi Peyami Safoning "To'qqizinchil jarrohlikdagi palata" romanidir. Bu asarda ham realistik, ham modernistik unsurlar mavjud. Bosh qahramonning romandagi boshqa qahramonlar bilan o'zaro konfliktida ijodkorning keyingi ijodida asosiy o'rinnegallagan turk madaniyatiga xos bo'lgan sharqona va g'arbona hayot tarzi asosiy motivini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: Peyami Safo, roman, modernizm, roman-kundalik.

ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПЕЯМИ САФО

Аннотация: Предметом написания статьи является роман турецкого писателя Пеями Сафа «Палата в девятой хирургии». Данное произведение содержит как реалистические, так и модернистские элементы. В противостоянии главного героя остальным персонажам романа прослеживается главный мотив двойственности турецкой культуры, который занимал основное место в позднем творчестве Пеями Сафа.

Ключевые слова: Пеями Сафа, роман, модернизм, роман-дневник.

FEATURES OF PEYAMI SAFHA'S WORKS

Annotation: The subject of this article is the novel "Ninth Surgery Ward" by the Turkish writer Peyami Safo. This work contains both realistic and modernist elements. In the main character's conflict with other characters in the novel, it is possible to observe the main motif of the Eastern and Western way of life typical of the Turkish culture, which occupies a key place in the artist's subsequent work.

Key words: Peyami Safa, novel, modernism, novel-diary.

Kirish qismi: Peyami Safo yigirmanchi asrning birinchi yarmida yashagan turk yozuvchisi bo'lib, uning nomi asarlari kabi ko'pchilik kitobxonlar uchun deyarli noma'lum. Sho'rolar davrida turkologlar olimlar uning ijodini bir qancha sabablarga ko'ra o'rganmaganlar. Avvalo, P. Safo "g'oyaviy jihatdan noto'g'ri" yozuvchi edi, chunki SSSRda hurmatga sazovor bo'lgan yana bir turk yozuvchisi Nozim Hikmat bilan ikkisi o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan, bu ziddiyat natijasida ular asarlarini o'zaro tanqid qilishdan tortib bir-birini qarama-qarshi mafkuralarga xayrixohlikda ayplashgacha borishgan. Turkolog olim N.A. Eyzenshteyn shunday yozadi: "30-yillardagi Peyami Safo dekadent mafkurasining g'ayratli targ'ibotchilaridan biri edi. U o'zini realist deb atasa ham realizmga qarshi kampaniyaga qo'shildi. Uning asarlariga "individual shaxsga "ongsiz ta'sir ko'rsatadigan" elita uchun adabiyot" deb baho berilgan. [1.33-b]

Bugungi kunda adabiy tanqidchilik realizmning "progressivligi", modernizmning "begonaligi" kabi iboralardan qochishga harakat qilmoqda. P. Safo asarlarini o'qish bizga 20-asrning birinchi yarmida Turkiya adabiy jarayonidagi chuqur o'zgarishlarni tushunishga imkon beradi, buning natijasida esa ancha keyin, 1980-yillarga kelib turk adabiyotida burilish yuz berdi. Boshqa bir turkolog olim S.N. Uturgaurining fikricha: "... klassik tipdag'i roman tuzilishi ularni

(yozuvchilarni) kamroq qiziqtiradi" [2.58-b] va shu sababli, masalan, adabiyotda Orxan Pamuk kabi yozuvchilar paydo bo'ldi. N.A Eyzenshteynning fikricha, P.Safaning ijodi qandaydir ikkiyoqlamalik bilan ajralib turadi, uning romanlarida ham realistik, ham modernistik unsurlar mavjud. Bu uning asarlari 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida yozilganligi bilan izohlanadi. Bu davr turk yozuvchilari Yevropa badiiy va falsafiy tafakkuri bir necha asrlar davomida erishgan narsalarini qisqa muddatda o'zlashtirishlari kerak bo'ldi. Bu esa asarlarga xos ma'lum bir kollektivlik va eklektizm jihatini keltirib chiqardi, ularda davrga xoz tendensiyalar va yo'nalishlar elementlari o'z aksini topdi.

Bundan tashqari, bu davrda G'arb va Sharq madaniyati va an'analar o'rtasidagi farq bu madaniyatining tashuvchisi sifatida turklarning ichki ziddiyatlarida keskin namoyon bo'ldi, chunki Turkiya Respublikasi tashkil etilishidan oldin turk jamiyatida (1923) hayotning ikkita modeli amalda edi. Mamlakatda parallel ravishda, arab-musulmon falsafiy va madaniy an'analariga asoslangan- an'anaviy va Evropa tajribasini namuna sifatida olgan yangicha yashash modeli ko'zga tashlanardi. Turk madaniyatida yuzaga kelgan bu ikkilik muammosi ham P.Safo ijodida asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

Peyami Safo (1899-1961) 19-asr oxirida Istanbulda mashhur usmonli shoiri Ismoil Safo oilasida tug'ilgan. O'g'li tug'ilgandan ko'p o'tmay Sulton Abdulhamid II Ismoil Safoni surgun qilgan va ikki yildan so'ng u surgunda vafot etди. Shoир vafotidan keyin oilasi boquvchisiz qolganidan tashqari, Peyami Safo kasallikka ham chalindi: to'qqiz yoshida unga suyak sili tashxisi qo'yildi. Kasallik va oilasini boqish zarurati unga tizimli ta'lim olish imkoniyatini bermadi. Biroq u bo'sh qolguncha o'qidi. O'n uch yoshida Peyami pochta va telegraflar vazirligiga xodim bo'lib ishga kirdi, u erda fransuz tilini o'rganishni boshladi va Birinchi jahon urushi paytida u o'qituvchi bo'lib ishladi. 1926-yildan boshlab jurnalist sifatida faoliyat yuritdi. Ukasi Ilhomiy bilan birgalikda "Yigirmanchi asr" (turkcha "Yirminci Asır") gazetasini nashr etib, unda hikoyalarini chop etdi. Uning asarlari tez orada shuhrat qozondi. Ayniqsa, onasi Server Bedia ismidan kelib chiqqan Server Bedi taxallusi bilan yozilgan bir qator detektiv hikoyalari undagi qahramon Cingöz Recai sababli mashhur bo'lib ketdi. U bir qator ilmiy maqolalar ham yozdi.

Bundan tashqari, P. Safo "Madaniyat haftaligi" (Kültür haftasi, 1936) va "Turk tafakkuri" (Türk Düşüncesi, 1953-1960) nomli ikkita jurnalni nashr etdi, "G'oyalar aksi" (Tasvir-i Efkar), "Respublika" (Cumhuriyet), "Millat" (Milliyet), "Tarjimon" (Tercüman) gazetalari uchun maqolalar yozdi, vafotiga qadar "So'nggi xabarlar" (Son Havadis) gazetasining bosh muharriri bo'lib qoldi [3.26-b]. P. Safo maktab uchun yozilgan bir qancha grammatika darsliklari muallifi ham edi [4.249-b].

Shunga qaramay, romanlari uning eng mashhur asarlari sanaladi, bular: "Ular begunoh qizlar" (Sözde Qizlar, 1925), "To'qqizinchı jarrohlikdagi palata" (Dokuzuncu Hariciye Koguşu, 1930), "Fatih - Harbiye", 1931), "Mademuazel Noralya kursisi" (Matmazel Noralyaning Koltugu, 1949). P. Safo asarlari nashr etilgan paytda ham, keyingi yillarda ham Turkiyada mashhur edi. Yozuvchi bugungi kunda turk psixologik nasrining asoschilaridan va eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri sanaladi. P.Safo ijodi haqida so'z ketganda, unda bir tomondan, 20-asrning birinchi yarmida Turkiyada adabiy jarayonning rivojlanishi va ikkinchi tomondan yozuvchining ijodiy izlanishlari bilan bog'liq bo'lgan mavzu va g'oyaviy xilma-xillikning mavjudligini ta'kidlash zarur.

Asosiy qism: Mashhur turk adabiy tanqidchisi Berna Moran o'zining "Turk romaniga tanqidiy nuqtai nazar" (Türk Romanina Eleştirel Bir Bakiş, 1983) kitobining birinchi jildini P. Safo ijodiga qaratar ekan, 1922-yildan to 1939-yilgacha bo'lgan davrni alohida ta'kidlaydi. O'sha yillar asarlari, uning fikricha, keyingi davr romanlaridan (asosan, "Mademuazel Noraliya kreslosi" va "Biz yolg'izmiz" (Yalniziz, 1951) romanlaridan) ajratib turuvchi ayrim xususiyatlarga ega. B.Moran ana shu xususiyatlarni belgilab, avvalo ulardag'i G'arb va Sharq

o'rtasidagi qarama-qarshilik motiviga e'tibor qaratadi: "Peyami Safo o'zining ilk romanlarini yozar ekan, Istanbul va uning atrofida bir tomondan ildizidan uzilgan, ma'naviy buzuq, pul va rohat uchun kun kechirgan insonlar, ikkinchi tomondan – jamiyatning islom an'analari asosida tarbiyalangan, milliy-ma'naviy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar va halol qatlami yashayotganini ko'rdi. Bunday ikki xil tarzda yashayotgan insonlar qarashlarini yozuvchi G'arb va Sharq o'rtasidagi ziddiyatda mujassam etgan holda tasvirladi" [5.167-b]. Keyinchalik turk tadqiqotchisi bu to'qnashuv P.Safo tomonidan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ishqiy munosabatlar kabi allegorik tarzda taqdim etilishini qayd etadi [5.168-b]. Qoida tariqasida, uning o'sha davrdagi romanlari syujeti qahramon, yosh, tajribasiz qiz qilish kerak bo'lgan qiyin tanlovga asoslanadi. Tanlov ikki qahramon o'rtasida bo'lib, ularni B. Moran quyidagicha tavsiflaydi: "Halolligi tufayli kun kechirishda qiynalayotgan mayda burjua ziyolisi sharqona tipdag'i insonni ko'rsatib bersa, aksincha, g'arbiy tip - bu Usmonli byurokratiyasining eng yuqori qatlamiga mansub, xalqdan ajralgan zodagon oilaning farzandi yoki savdogar chayqovchilar qatlaming vakili sifatida gavdalanadi" [5.169-b]. B.Moranning g'oyasini rivojlantirar ekanmiz, muallif rejasiga ko'ra, bunday sevgi uchburchagi Turkiya Respublikasi tashkil topishining dastlabki yillarda amalga oshirishga majbur bo'lgan tanlov ramzi ekanligini tasavvur qilish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, yozuvchi "To'qqizinchi jarrohlikdagi palata" romanidan tashqari, ijtimoiy ziddiyat asosida qurilgan, o'sha davrning boshqa asarlarida qahramon sharqona tipdag'i olijanob ziyolini tanlaydi.

Yozuvchi ijodidagi bu motivning ahamiyatini B. Moran yana bir bor shunday ta'kidlaydi: "Syujetdagi bunday tuzilish Peyami Safo tomonidan 1939-yilgacha yozilgan barcha romanlarda takrorlanadi". [5.168-b].

Ushbu maqolada o'rganish obyekti bo'lgan "To'qqizinchi jarrohlikdagi palata" romani ham mavzu jihatidan, ham badiiy-uslubiy xususiyatlari bilan yozuvchi asarlaridan ajralib turadi. Ushbu qisqa avtobiografik asar keyinchalik uning boshqa romanlarida ilgari surilgan g'oyalarning butun majmuasini aks etdiradi.

Bizningcha, roman nomini "To'qqizinchi jarrohlik bo'limidagi palata" yoki qisqasi, "To'qqizinchi jarrohlikdagi palata" deb tarjima qilish kerak. Bu romanning hajmi P. Safoning boshqa romanlari bilan solishtirganda ham kichik, uni hikoya deb atash mumkin. Roman syujeti tashqi dinamikadan xoli. Bu asar oyoq bo'g'imidagi noma'lum kasallikdan aziyat chekkan, kambag'al oiladan chiqqan o'n besh yoshli o'smir hayotining bir necha oylarini qamrab oladi. Vaqt o'tishi bilan kuchayib boruvchi kasallik qahramonni ruhiy tushkunlik holatiga soladi. U kuniga bir necha soat kasalxonalarda yotadi, ammo hech kim unga aniq tashxis qo'ya olmaydi. Shunga qaramay, barcha shifokorlar amputatsiya qilinishi mumkinligi haqida gapirishadi. Bu haqida onasini imkon qadar uzoq vaqt xabardor qilmaslik uchun qahramon o'zining uzoqdagi badavlat qarindoshi Poschoning uning xonadonida bir muddat yashash taklifini qabul qiladi va shaharning kambag'allar mahallasidan Istanbul markaziga ko'chib o'tadi. Biroq, bu harakat uning jismoniy yoki ruhiy azoblarini yengillashtirmaydi, chunki bu yerda u oshiq bo'lgan Poschoning qizi Nyuzxet bilan yana uchrashadi. Shu orada shifokorlar to'qqizinchi jarrohlikda unga davolanish uchun palata topadilar, ammo bu ham unga taskin bermaydi. Bundan tashqari, tez orada Pasha qizi Nyuzxetni shifokor Ragipga turmushga bermoqchiligi ma'lum bo'ldi. Qahramon o'zining, kambag'al, kasal holida turmush qurish imkoniyati yo'qligini aniq tushunadi. Qolaversa, tushlik paytida u doktor Ragip bilan turmush qurish imkoniyati yo'qligini aniq tushunadi. Qolaversa, tushlik paytida u doktor Ragip bilan turmush qurish imkoniyati chet elning haddan tashqari ta'siri va xavf-xatarlari to'g'risida bahslashadi, bu esa Poschoga yoqmaydi. Qahramon ko'shkda boshqa qolishi mumkin emasligini tushunib, ketishga qaror qiladi. U uzoq vaqt yuradi, bu tez orada kasallikning kuchayishiga olib keladi. Qahramon to'qqizinchi jarrohlikga olib borilgach operatsiya davomida shifokorlar nogiron bo'lib qolsa ham, uning oyog'ini amputatsiyadan saqlab qolishga muvaffaq bo'lishadi. O'ziga kelgan yigit kasalxonada o'tkazgan vaqtlarida Nyuzxet va doktor Ragipning unashtirilishi hali bo'lmaganligini va shol bo'lgan Poscho o'limidan oldin

yozgan maktubda uni yana o'z uyiga taklif qilganini biladi. Asarning syujeti shu shaklda bo'lib uning nima bilan yakunlangani aniq emas.

Asar voqealari Birinchi jahon urushi paytida, 1915-yilda Istanbulda sodir bo'ladi. Biroq, urush faqat hikoya uchun fon sifatida namoyon bo'ladi va yozuvchiga qo'shimcha psixologik effekt yaratishga yordam beradi. Asarda qahramonlar ko'p emas: markaziy o'rinni qahramon, o'n besh yoshli bola egallaydi, uning ismi aytilmaydi. Voqealar uning tilidah hikoya qilinadi, uning so'zlaridan o'quvchi sodir bo'layotgan hamma narsa haqida ma'lumot oladi. Shu bilan birga, qahramon tashqi kuzatuvchi emas: u doimo o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lgan voqealarda shaxsan ishtirok etadi yoki guvohi bo'ladi.

Asar voqealari uchta joyda bo'lib o'tadi: shahar chetidagi qahramonning uyida, Poshoning uyida va kasalxona bo'limida. Asarda psixologik romanning belgilaridan biri deb sanaladigan o'sha "yopiq makon" bor. Biroq, ma'lum vaqtarda voqealar binolardan shahar ko'chalariga, qasr bog'iga, kasalxona hovlisiga va hokazolarga ko'chaadi.

Xulosa qismi: Peyami Safo ushbu roman uchun tanlagan kundalik shakli nafaqat qahramonning ichki dunyosini chuqurroq ochishga hissa qo'shami, balki o'quvchiga dunyoga uning nigohi bilan qarash imkonini beradi. Hikoyachi keraksiz tushuntirishlarga murojaat qilishi shart emas va sodir bo'layotgan hamma narsani tabiiyroq idrok etiladi. Garchi voqealar yigirmanchi asrning birinchi yarmida yuz berayotgan bolsa-da, turk adabiyotida kundalik roman hikoya qilishning keng tarqalgan shakli emas, lekin yangilik ham emas edi. Shu o'rinda Reshad Nuri G'untekining eng mashhur turk romanlaridan biri "Choliqushi" (Chalikuçu, 1922) kundalik shaklida yozilganini eslash joiz.

Yozuvchi va romandagi qahramon hayotidagi voqealarni solishtirsak, Peyami safo ham sakkiz yoshidan beri og'ir xastalikdan aziyat chekganini, ko'plab tekshiruvlardan so'ng suyak sili tashxisini qo'yishganini, va shunga qaramay, u amputatsiya oldini olinganini ta'kidlash mumkin. Qahramonning ruhiy holati, boshidan kechirgan tuyg'ulari yozuvchinikiga juda yaqin. Umuman olganda, P.Safo kiritgan mavzu va tasvirlar o'sha davr turk adabiyoti uchun yangilikdir. Tavsiflash texnikasiga kelsak, bu erda muallif ko'proq an'anaviy uslublarga amal qiladi, faqat bir qator hollarda modernistik uslubdan foydalanadi.

Asarning boshlanishi va oxiridagi umumiy g'oya bir-birini deyarli takrorlaydi. Bu esa romandagi kundalik shakli mohiyatan shartli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Biroq, qahramondan ko'ra yozuvchining o'zi uchun muhimroq bo'lgan yana bir xususiyatni ko'rish mumkin. Biz dard chekayotgan odamning hayoti, yashash tarzi kabi mavzu qaysidir ma'noda Peyami Safo uchun ham eng muhim narsaga aylanganini ko'ramiz. Har holda, qolgan hamma narsa - sevgi liniyasi, Sharq va G'arb o'rtasidagi ziddiyat, Birinchi jahon urushi - aniq ikkinchi va hatto uchinchi planda deyishimiz mumkin. Dard chekayotgan qahramonning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish muallifning bu romanni yozishdan asosiy maqsadidir. Bu, bizning fikrimizcha, "To'qqizinchi jarrohlikdagi palata" romanidagi modernistik jihat sanaladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Akfay. Y. Peyami Safa'ya Göre Türk Dili (Türkfenin Sorunları / Qözüm Önerileri) // Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 13. Kütahya. 2005. — S. 245—254.
2. Айзенштейн Н.А. Из истории турецкого реализма. Заметки о турецкой прозе (70-е годы XIX в. — 30-е годы XX в.). М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1968. — С. 131—134.
3. Утургаури С.Н. Роман в современной литературе Турции // Современные литературы стран Азии и Африки. Типологические признаки национальных и межнациональных литературных систем. М.: «Наука», Главная редакция восточной литературы, 1968. — С. 47—58.

4. Hizlan D. Cornerstones of Turkish Literature. ist.: Ofset Yapimevi, 2008. — 204 s.
5. Hamidov, X. (2024). Turk tili frazeologiyasi va o ‘zbekcha-turkcha tarjima masalalari. *Monografiya*, Publication date, 1, 232.
6. Хамидов, X. (2020). Проблема выбора слов в художественном переводе (на примере турецкого перевода романа «Мировые дела»). *Восточный факел*, 2(2), 117-126.
7. Hamidov, X. (2022). TURKCHA MAROSIM NOMLARI VA ULARNING TARJIMASIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 28), 230-237.
8. Hamidov, X., & Rasulova, K. (2023). OYBEKNI TURKCHA “SO ‘ZLATGAN” IJODKOR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 165-162.
9. Moran B. Türk Romanına Eleştirel Bir Bakış. Cilt 1: Ahmet Mithat'tan Ahmet Hamdi Tanpinar'a. ist.: İletişim Yayınlari, 1998. — 336 s.
10. Mahamadjon Pulatbayevich Aripov. (2024). MEANING PHENOMENA IN TURKISH WISHES / GREETINGS / PRAYERS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(12). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/2315>

